



SHE'RIY MATN BADIY MATNNING MAXSUS SHAKLI SIFATIDA

Babaxanov Laziz Abdullaxanovich

Angren universiteti katta o'qituvchi

babaxanovlazizxon@gmail.com (94-367-70-02)

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riy matnning badiiy matnning maxsus shakli sifatidagi o'rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilinadi. She'riy matn tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot davomida turli olimlarning she'riy matn haqidagi ta'riflari o'rganilib, ularning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. She'riy matnning badiiy-estetik imkoniyatlari, uning ritmik va semantik jihatlari, qofiya tizimi, poetik fonetikasi hamda lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada she'riy matnning inson hissiyotlariga ta'siri, uning psixologik va madaniy jihatlari ham o'rganiladi. Poetik nutqning o'ziga xos xususiyatlari, uning ma'naviy qimmati va estetik mazmuni ilmiy yondashuv asosida tadqiq qilinadi. Tadqiqot she'riy matnni poetik lingvistika, fonetik poetika va qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: she'riy matn, badiiy matn, tilshunoslik, poetik semantika, fonetik poetika, qofiya, ritm, adabiyotshunoslik, estetik qimmat, lingvopoetika.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of poetic text as a special form of literary text. Poetic text serves as an important subject of research in both linguistics and literary studies. The article explores various definitions of poetic text proposed by scholars and examines their theoretical perspectives. Additionally, the research delves into the artistic and aesthetic aspects of poetic text, highlighting its rhythmic and semantic structure, rhyme system, phonetic poetics, and linguistic characteristics. Moreover, the study investigates the impact of poetic language on human emotions and its psychological and cultural significance. The uniqueness of poetic discourse, its spiritual value, and artistic expression are analyzed from a scientific perspective. The study employs methodologies from poetic linguistics, phonetic poetics, and comparative literature to offer a multidimensional view of poetic text.

Keywords: poetic text, literary text, linguistics, poetic semantics, phonetic poetics, rhyme, rhythm, literary studies, aesthetic value, lingvopoetics.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль и значение поэтического текста как особой формы художественного текста. Поэтический текст рассматривается как важный объект исследования в лингвистике и литературоведении. В статье изучаются различные определения поэтического текста, предложенные

учеными, а также анализируются их теоретические взгляды. Исследование также освещает художественные и эстетические аспекты поэтического текста, подчеркивая его ритмическую и семантическую структуру, систему рифмы, фонетическую поэтику и лингвистические особенности. Кроме того, изучается влияние поэтического языка на эмоции человека, а также его психологическая и культурная значимость. Уникальность поэтического дискурса, его духовная ценность и художественное выражение анализируются с научной точки зрения. Исследование основано на методологиях поэтической лингвистики, фонетической поэтики и сравнительного литературоведения, что позволяет всесторонне рассмотреть сущность поэтического текста.

Ключевые слова: поэтический текст, художественный текст, лингвистика, поэтическая семантика, фонетическая поэтика, рифма, ритм, литературоведение, эстетическая ценность, лингвопоэтика.

Kirish. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda badiiy matn o‘ziga xos xususiyatlari, shakli va uslubi bilan tilning ko‘p qirrali imkoniyatlarini namoyon eta oladigan matn turi sifatida ahamiyatlidir. Badiiy matn nasriy va she‘riy matnlarga bo‘linadi. She‘riy matn o‘zining maxsus tuzilishi, his-tuyg‘ularni ifoda etishdagi yuksak imkoniyatlari va badiiy-estetik vositalardan keng foydalanishi bilan alohida o‘rin tutadi.

She‘riy matn har qanday adabiy jarayonning markaziy bo‘g‘ini sanalib, uning asosiy vazifasi nafaqat axborot yetkazish, balki san‘at darajasida ifodalangan his-tuyg‘ular va ma‘naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishdir. Bunda uning leksik, grammatik, fonetik va stilistik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda qofiya, ritm, metafora, epitet, allegoriya, simvolika va boshqa badiiy ifoda vositalarining keng qo‘llanilishi uning o‘ziga xosligini namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma‘lumki, she‘riy matn – bu muayyan ritm, qofiya va badiiy ifoda vositalari orqali shakllangan, ma‘naviy va estetik mazmunni o‘z ichiga olgan so‘z san‘atining mahsulidir. U tilning musiqiylikini, his-tuyg‘ular jarayonini, ma‘nolar uyg‘unligini namoyon etadi. U nafaqat axborot yetkazish, balki o‘quvchi ongida his-tuyg‘ular uyg‘otish, badiiy obrazlar yaratish, ruh va qalb bilan muloqot qilish vazifasini ham bajaradi. Har bir misra – qalb qo‘shig‘i, so‘zlardagi musiqiylik va tuyg‘ular daryosi bo‘lib, insonning botiniy kechinmalarini yuksaltiruvchi ijodiy ifoda vositasidir.

Tilshunos va adabiyotshunoslar she‘riy matnga turlicha ta‘rif berishgan. Jumladan, V.V. Vinogradov she‘riy matnni “badiiy nutqning o‘ziga xos shakli”, Yu.M. Lotman esa she‘riy matnni «semiotik tizim» deb tavsiflaydi va uning ramziylik xususiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. O‘zbek adabiyotshunosligi vakillari N.M. Mallaev va I.G‘afurovlar she‘riy matn “badiiy matnning maxsus tuzilmaviy shakli” sifatida e‘tirof etishadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada she‘riy matnni tahlil qilish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda she‘ry matnning rivojlanish tarixini o‘rganish va uning turli davrlardagi o‘zgarishlarini tahlil qilishga asoslangan tarixiy-tahliliy, she‘riy va nasriy matn

o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda turli til va madaniyatlardagi she‘riy matnlarni qiyosiy tahlili (qiyosiy metod), matndagi fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarni, ritm va qofiya tizimini o‘rganishda qo‘llaniluvchi (lingvopoetik); she‘riy matndagi obrazlar va ularning inson ongida shakllanishi, ma‘naviy qabul qilinishi jarayonlari (kognitiv) tahliliga e‘tibor qaratildi. Ushbu metodologik yondashuv she‘riy matnni turli nuqtayi nazaridan to‘liq va har tomonlama o‘rganish imkonini berdi.

Munozara va muhokama. She‘riy matnning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi uning o‘zgacha tuzilmasi va ma‘noviy tarkibini tahlil qilish imkonini beradi. She‘riy nutqda o‘ziga xos qoidalar va me‘yorlar mavjud bo‘lib, ular adabiy jarayonning rivojlanishi va uning jamiyatdagi ahamiyatini anglashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda she‘riy matnni kognitiv tilshunoslik, korpusli tahlil, semiotika, lingvopoetika va boshqa yo‘nalishlar nuqtayi nazaridan o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

She‘riy matnning lingvistik xususiyatlarini quyidagi tamoyillar asosida o‘rganilishini kuzatish mumkin:

Fonetik poetika: Tilshunoslikda fonetik poetika tushunchasi she‘riy matnning o‘ziga xos ritmik xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, she‘rdagi ovoz va ton qo‘llanishi she‘rning ta’sirchanligini, fonetik va ritmik birliklarning bir-biriga bog‘liqligi uning ma‘no qatlamlarini boyitishini kabi masalalarni (R.Yakobson, Sh. Rahmatullaev, A. Muhammadiev, J. Jamolov va N. Norqulov va bosh.) o‘rganadi.

Poetik semantika: Turli tillarda she‘riy matnlarning ma‘no qatlamlari, metaforalar, ramzlar va ularning kognitiv tarkibi o‘rganiladi. Bu jarayon poetik ma‘nolarni hozirgi zamon tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini yaratadi. M. Lakoff va J. Jonson kabi kognitiv tilshunoslar tomonidan metaforalarning inson tafakkuriga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, ular poetik matnlarda ko‘proq mavjud ekanligi isbotlangan.

Qiyosiy she‘rshunoslik: Turli madaniyatlar va tillardagi she‘riy matnlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali global til madaniyati tushunilishi kengayishiga yordam beradi. Xususan, Yu.M. Lotman va M.M. Baxtin tomonidan qiyosiy adabiyotshunoslik metodlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yordamida she‘riy matnlarning intertekstual xususiyatlari tahlil qilingan. Turli madaniyatlar va tillardagi she‘riy matnlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida Sh.Umarov va A.Abduazizov kabi olimlar o‘zbek va jahon poeziyasidagi badiiy vositalarni qiyosiy tahlil qilganlar. Ular o‘zbek she‘riyatining klassik va zamonaviy namunalarini jahon adabiyoti bilan solishtirib, ulardagi poetik o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashgan.

Kompyuter va korpusli tilshunoslik: She‘riy matnlar kompyuter-lingvistik tadqiqotlarda tahlil qilinadi, ularda avtomatik qofiya va ritm aniqlash, semantik analiz va sintaktik modellashirish ishlari olib boriladi. Oksford va Massachusetts texnologiya instituti (MIT) kabi nufuzli ilmiy markazlarda korpusli tilshunoslik yordamida poetik matnlarni sintaktik va fonetik tahlil qilish loyihalari olib borilmoqda.

Kognitiv tilshunoslik: She‘riy matndagi obrazlar, his-tuyg‘ular va fikrlash mexanizmlari kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi, bu esa inson ongidagi badiiy tafakkur jarayonlarini chuqur tushunishga imkon beradi. A.A.Zalevskayaning kognitiv tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlari she‘riy matnlarning emotsional va kognitiv ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan. Uning fikricha, she‘rdagi metaforalar va obrazlar ongda assotsiatsiyalar vositasida shakllanadi va yodda saqlanadi. A.A. Rasulov va Z.X. Yo‘ldosheva kabi olimlar tomonidan she‘riy matndagi his-tuyg‘ular va ularning kognitiv jarayonlarda tutgan o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan. Ular she‘riy matnda metafora va obrazlar qanday shakllanishi va inson tafakkuriga qanday ta‘sir ko‘rsatishini o‘rganishgan.

Tarjimashunoslik: She‘riy matnlarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish jarayonida ularning badiiy va ma‘naviy xususiyatlarini saqlash usullari tahlil qilinadi. G. Turneyzen va A. Komissarov kabi tarjimashunos olimlar she‘riy matnlarni tarjima qilishda fonetik, ritmik va semantik uyg‘unlikni saqlash printsiplari haqida muhim nazariy ishlarni ilgari surganlar. O‘zbek tilidagi she‘riy asarlar M.Qosimov va H.Xudoyberdievlar tomonidan Alisher Navoiy, Furqat, Hamid Olimjon va boshqa shoirlarning she‘rlarini tarjima qilish masalalari ustida olib borilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili she‘riy va nasriy matnlar adabiy jarayonning ikki asosiy shakli ekanligi, ularning o‘z o‘rni va vazifalari mavjudligini ko‘rsatadi. Ular o‘rtasidagi asosiy farqlarni quyidagicha belgilash mumkin:

Tuzilish va shakl: She‘riy matnda ritm, qofiya va strofik tuzilma mavjud bo‘lib, u muayyan badiiy qoidalarga asoslanadi. Nasriy matn esa erkin shaklda yoziladi, unda qofiya va ritm talab qilinmaydi.

Ma‘no va semantik tarkib: She‘riy matnda semantik zichlik kuchli bo‘lib, bitta so‘z bir necha ma‘nolarga ega bo‘lib, nasriy matnda fikr kengroq, ma‘no odatda ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etiladi.

Emotsionallik va obrazlilik: She‘riy matn his-tuyg‘ularni ifodalashda badiiy ifoda vositalariga boyligi, ta‘sirchanligi bilan, asosan hikoya va ma‘lumot uzatish ustuvor bo‘lgan, his-tuyg‘ularga nisbatan kam o‘rin beriladigan nasriy matndan farqlanadi.

Fonetik xususiyatlar: She‘riy matnda alliteratsiya, assonans, ritmik uyg‘unlik kabi fonetik elementlar faol qo‘llaniladi. Nasriy matnda bu xususiyatlar asosiy omil bo‘lmay, ko‘proq grammatik tuzilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va uslubiy farqlar: She‘riy matnda metafora, simvol, giperbola, tashbeh kabi badiiy vositalardan unumli foydalanilishi, nasrda esa aniqlik, mantiqiy izchillik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon ustuvor bo‘ladi.

Mazkur farqlanishlar she‘riy matnlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish ham o‘ziga xoslikka egaligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy she‘riyat an‘anaviy qofiya va ritmdan chiqib, erkin shakllardan keng foydalanmoqda. Endi she‘riy matn faqat qofiya va vaznga bog‘liq emas, balki ma‘no va his-

tuyg‘u ustun turadi. Masalan: Ulug‘bek Hamdamning "Men kuylasam" she‘rida buni yaqqol ko‘rish mumkin:

*"Men kuylasam, kuylarim xil-xil,
Men o‘ylasam, o‘ylarim xil-xil.
Jimliklaring rango-rang sening,
Ovozlaring yetarmi sening?.."*

Bu yerda she‘r an‘anaviy qofiya tartibidan ko‘ra, ichki ritm va takroriy so‘zlar orqali ohangdorlik hosil qiladi.

Bugun she‘riyatning semantik ko‘lami ham kengaydi: shaxsiy kechinmalar, hayot va falsafiy mushohadalarni chuqur yoritishga harakat qilinmoqda. She‘riy matn shunchaki tasvir emas, balki insonning ichki kechinmalari, ma‘naviy olami haqida hikoya qiladi.

Ulug‘bek Hamdamning "Inson" she‘rida mavzu mohiyati falsafiy jihatdan chuqur ochilgan:

*"Ikki g‘ordir-ikkita ko‘zim,
Qalbim unda gizli xazina.
Vujud – o‘tim, aqlim-jilovim,
Ming asrdir yo‘ldaman mana!.."*

Bu misralarda insonning tanasi yo‘ldagi otga, qalbi esa sirli xazinaga qiyoslangan.

Zamonaviy she‘riyatda boshqa sohalar bilan bog‘lanishga ham e‘tibor qaratilmoqda. Ular tarixiy, diniy, falsafiy va zamonaviy ijtimoiy matnlar bilan dialogga kirishadi. **Jumladan, U.Hamdamning "Vatan"** she‘rida mavzu mohiyati yangi ma‘noda ochib beriladi:

*"Yurtin qancha maqtaganlar bor,
Bilib-bilmay yoqlaganlar bor.
Til uchida madhini aytib,
Shirin jonin saqlaganlar bor."*

Bu yerda vatan tushunchasi faqat geografik joy emas, balki shaxsiy ong va iymon masalasi sifatida talqin qilinadi.

Har bir shoir o‘ziga xos uslub yaratishga harakat qiladi. She‘riy til kuchli ekspressiv vositalar bilan boyitilib, individual his-tuyg‘ular ifodasi chuqurlashtirilgan. Masalan U.Hamdamning **"Iltijo"** she‘rida muallifning his-tuyg‘ulari juda ochiq ifodalangan:

*"Yana senga tushmoqda ishim,
Yana Sensiz hech kimman axir!
Huzuringga yukinib keldim,
Hayot bo‘ldi achchiq va taxir..."*

Bu misralar inson va Yaratganning o‘zaro munosabatini poetik tasvirlashga asoslangan bo‘lib, unda iltijo va umid hissi kuchli seziladi.

Ko‘rinadiki zamonaviy she‘riy matn erkin shaklda, shaxsiy tajriba va his-tuyg‘ular ifodasiga e‘tibor kuchaygan. She‘rlar ichki ritmga, lingvistik tajribalarga, intertekstual

bog‘liqliklarga va poetik innovatsiyalarga boy bo‘lib bormoqda. Ulug‘bek Hamdamning she‘rlari zamonaviy she‘riyatning ushbu tendensiyalarini yorqin aks ettiradi.

Xulosa: She‘riy matn badiiy nutqning alohida shakli bo‘lib, u nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, kognitiv lingvistika, korpusli tahlil va semiotik nuqtayi nazaridan ham o‘rganilishi lozim. Uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish uning ichki va tashqi tuzilmalarini aniqlash, ma‘no qatlamlarini ochib berish va badiiy ta’sirchanlik mexanizmlarini tushunish imkonini yaratadi. Bularning barchasi she‘riy matnni yuqori estetik qadriyatga ega hodisa sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tilshunoslikda she‘riy matnni korpusli tahlil qilish, kognitiv modellash, tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish yangi tendentsiyalarga yo‘l ochmoqda. Poetik semantika, qiyosiy she‘rshunoslik va kompyuter-lingvistika kabi sohalarda she‘riy matnni tahlil qilish uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu sababli, she‘riy matnni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniy merosni asrab-avaylash, adabiy jarayonlarni tahlil qilish va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni o‘rganish uchun ham dolzarb masaladir. Kelgusida uning yangi uslubiy tahlil usullari yordamida chuqurroq tadqiq qilinishi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uchun muhim ilmiy natijalar berishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. MIT Language and Poetry Analysis Research Group. (2020). Computational Analysis of Poetic Structure. Cambridge: MIT Press.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Москва: Искусство, 1986.
3. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. Москва: Наука, 1971.
4. Жамолов, Ж. Шеърий матнда овозлар уйғунлиги. -Тошкент: Фан, 2010.
5. Залевская А.А. Когнитивные процессы и поэтический текст. Москва: Языки славянской культуры, 2012.
6. Ёўлдошева З.Х. Ўзбек шеъриятида метафора ва унинг когнитив таҳлили. - Тошкент: Академнашр, 2018.
7. Комиссаров А.В. Теория перевода. Москва: Высшая школа, 1990.
8. Қосимов М. Алишер Навоий ғазалларининг таржимаси ҳақида. -Тошкент: Фан, 1999.
9. Лакофф М., Жонсон Ж. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста. Санкт-Петербург: Искусство, 1992.
- Маллаев Н.М. Ўзбек адабий тили тарихи. -Тошкент: Фан, 1976.
11. Муҳаммадиев А. Ўзбек шеъриятида қофия ва ритм. -Тошкент: Университет нашри, 1995.

12. Норқулов Н. Корпусли тилшуносликда шеърий матн таҳлили. -Тошкент: Илм-фан, 2018.
13. Расулов А.А. Когнитив лингвистика ва бадиий матн таҳлили. -Тошкент: Илм-фан, 2012.
14. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фонетик тизими. Тошкент: Фан, 1982.
15. Турнейзен Г. The Art of Literary Translation. London: Oxford University Press, 2000.
16. Умарбеков Ш. Ўзбек шеъриятида бадиий рамзлар. -Тошкент: Университет нашри, 2005.
17. Умаров Ш., Абдуазизов А. Қиёсий адабиётшунослик асослари. -Тошкент: Фан ва технология, 2010.
18. Худойбердиев Ҳ. Таржимашунослик ва бадиий таржима муаммолари. - Тошкент: Университет нашри, 2015.
19. Якобсон Р. Linguistics and Poetics. Cambridge: Harvard University Press, 1910.